

**MAKTABGCHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA  
TARBIYACHINING MAHORATI VA BILIM, KO'NIKMA,  
MALAKALARINING FAOLIYAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI**

*Kuqand universiteti  
Talim tarbiya nazariyasi 1 bosqich Magistranti  
Yo'ldosheva Zulfiza Odiljonova*

**THE IMPORTANCE OF THE EDUCATOR'S SKILLS AND KNOWLEDGE,  
SKILLS, QUALIFICATIONS IN THE ACTIVITY OF PRESCHOOL  
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IN THE DEVELOPMENT OF  
ACTIVITIES**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'luliyatli vazifani bajarishi haqida fikr yuridtiladi. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining jamiyatimizdagi o'rni, o'ziga xosligi xaqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, pedagog, siyosiy dolzarblik, tarbiyachi, bola, psixologiya , ilmiy bilim , kasb-hunar, malaka va ko'nikmalar.

**Annotation:** In this article, it is discussed that the educator fulfills a responsible task along with the important and proud work of preparing our young generation to become worthy children of our nation. At the same time, there was talk about the role and uniqueness of the pedagogical activity of the preschool educator in our society.

**Key words:** society, pedagogue, political relevance, educator, child, psychology, scientific knowledge, profession, qualifications and skills.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib Tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'luliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z masuliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, O'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, Umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.Tarbiyachi maktabgacha ta'lif tashkilotida asosiy shaxs hisoblanadi.

Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq. Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi Shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

- Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati – uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhim – bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

- Bolalar bog'chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtida va qanday namoyon bo'lshini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

- Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi Bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

- Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lismiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta'surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo'lish – fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo'lmaydi. Mashg'ulotda tarbiyachi o'z ovozidan quroq sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat'iy tapirish mumkin, ammo bunda so'z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim. Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim. Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi. Bolaning ko'p harakatlarni o'tirib bajarishi ham aslida maqsadga muvofiq emas. Hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotlari yetuk shaxslarni tarbiyalash, barkamol avlodni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'g'in sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, uning mahsuli nafaqat yangi bilimlarni, yangi maqsadlarni, yangi qadriyatlarni va shaxsiy ma'nolarni egallash, balki o'qituvchining muhim kuchlarini ochib berish va rivojlantirishdir, uning intellektual, axloqiy va ijodiy

salohiyatini ko'rsatib berishdan iborat. Ijodiy salohiyat – bu shaxsning o'zini o'zi anglashga yo'nalishini, tayyorligini va qobiliyatini belgilaydigan ijodiy faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo'lgan shaxsning dinamik, integrallangan xususiyati sanaladi.

Zamonaviy ilm-fan asosida insonning mavjudot sifatida tushunchasi yotadi. Insonning dunyoning transformatori, yangi munosabatlarni yaratuvchisi va o'zi sifatida mohiyati aynan ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Ijodkorlik elementlari insonning har qanday faoliyatida mavjud bo'lganligi sababli, odamlarning ijodkorligi nima uchun juda xilma-xil va ko'p qirrali ekanligini va nima uchun, ijodiy muammo qayerda paydo bo'lishidan va kim tomonidan hal qilinishidan qat'iy nazar – olim yoki o'qituvchining turli faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Ijodiy faoliyatning universal namoyon bo'lishi haqidagi fikrlar ko'plab tadqiqotchilarining asarlarida mavjud.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachining ijodiy qibiliyatini rivojlantirishda asosiy rolni uning kasbiy faoliyati va o'zini takomillashtirish istagi egallaydi. Qibiliyatlarning rivojlanishi har bir tarbiyachichi egallashi kerak bo'lgan pedagogik mahorat va qobiliyatlarga bevosita bog'liqdir. Ma'lumki, aslida pedagogik faoliyat tabiatan ijodiy xususiyatga ega. Tarbiyachi faoliyatida kasbiy mahorat va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlik qanday? Ehtimol, bu tushunchalar umuman sinonimdir? Ijodkorlik odatda jarayon sifatida tavsiflanadi, uning natijasi yangi moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni yaratishdir. Yangilik mezoni ob'ektiv tarkibga (ma'lum bir bilim sohasi uchun yangi) va sub'ektivlikga (shaxs uchun yangi –faoliyat sub'ektiga) ega bo'lishi mumkin. Agar fikrlash jarayonida ijod ustunlik qilsa, u holda u o'zini tasavvur sifatida namoyon qiladi (K.K. Platonov). Tarbiyachining kasbiy mahorati ijodkorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, bu tushunchalar sinonim emas:

- Kasbiy vakolatli harakatlar tarbiyachining ining ijodkorligi natijasi bo'lishi shart emas.

-O'qitishda ijodkorlik ko'pincha barcha kasalliklarga qarshi davo sifatida, reproduktiv (reproduktiv) faoliyat uchun joy qoldirmaydigan dominant sifatida qaraladi. Reproduktiv faoliyat, qoida tariqasida, faqat tan olinadi istalmagan, ammo ijodkorlikka o'tish. Pedagogik faoliyatda reproduktivlikning ko'p darajali tuzilishga ega ekanligi Haqiqatan ham kam baholanadi: bilimlarni noaniq qayta aytib berishdan tortib, ko'plab Tashqi omillarni hisobga olgan holda materialni moslashtirish qobiliyatigacha. Reproduktivlik – bu o'zgaruvchan sharoitlarda o'zlarining pedagogik faoliyatini tiklash qobiliyatini va anglatadi. Pedagogik ishning ustasi – bu psixologik-pedagogik va dolzarb mavzudagi yuqori malakali mutaxassis bo'lib, u kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni yuqori darajada qayta ishlab chiqarishga qodir shaxsdir.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda O'zbekistan Respublikasini Ta'lim to'g'risida va «Kadrlar tayyorlash

Milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlari talablari asosida tashkil etildi. Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama etuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologiq pedagogik shart – sharoitlar yaratadi, bolalarni mактабда мунтазам ravishda ta`lim olishga tayyorlashda ota – onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta`lim bola 6 – 7 yoshga etguncha oilada, hamda davlat va Nodavlat maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim –tarbiyasiga qo'llaydigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va etuk mактабда o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha ta`limning vazifalari:

- Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- Bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlanishirish;
- Bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta`minlash;
- Bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- Bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- Bolalarni mактабда o'qishga tayyorlash.

Maktabgacha ta`lim uzlusiz ta`limning hamma turlari bilan mustahkam aloqada olib boriladi. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida – oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyilgan. Shuningdek, voyaga etmaganlar – davlat himoyasidadir – deb uqtiriladi. Maktabgacha ta`lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy va mintaqqa xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladi.

## XULOSA

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyachilarining kasbiy faoliyati va uning ijodkorlikgi muhim ahamiyatga ega. Har bir tarbiyachi o'zining ijodiy fikrashi va faoliyati oraqlari bolalarning rivojlanishiga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shadi.

Shunday qilib ijodkorlik tarbiyachining muhim sifatlaridan biridir. Har bir darsga kirishdan oldin tarbiyachi ma'lum darajada ijodiy izlanishlar olib borishi uning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlab beradi. Xulosa qilib aytganda, mashg'ulotda ta`lim berish orqali bolalarda mактабдаги o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi. Mashg'ulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga qulq solish, hikoya qilinayotgan voqeadiagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar

orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi .

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: Darslik. Iqtisod -moliya, R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'linda innovatsion texnologiyalar / Ta'lism
2. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. PsychologyandEducationJournal, 58(2), 1339-1345.
3. Xasanova, G. (2020). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan Foydalanishning pedagogik mazmuni. Arxiv Hayuchnyx Publikacijy JSPI.
4. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
5. Muslimov N.A.,Usmonboyev M.H.,Sayfurov D.M.,Turayev A.B.,Pedagogik Kompetantlik va kreativlik asoslari T.:2015
6. Davlatshen M.G. Umumiyy psixologiya T-2002
7. [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-10-05-12-51\\_504cdd76ec31062127e2c62cd90408f2.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-10-05-12-51_504cdd76ec31062127e2c62cd90408f2.pdf)
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tarbiyachisi-pedagogik-faoliyatining-o-ziga-xosligi>
9. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/presedu/article/download/2842/1888/7010>